

10 40144/1

cho-pehagim - cho-pehah
1



AQL VA BOYLIK

UDK: 821.512.133.

398.21

KBK 82.3(50')

A96

Aql va boylik: Cho'pchagim-cho'pchak / To'plovchi A.Sharopov. - Toshkent: Akademnashr, 2012. - 16 b.

ISBN 978-9943-397-66-8

UDK: 821.512.133.

398.21

KBK 82.3(50')

Adabiy-badiiy nashr

AQL VA BOYLIK

(O'zbek xalq ertagi)

To'plovchi: Abdulla SHAROPOV

Muharrir: Shahniza TORAXO'JAYEVA

Musahhit: Marhabo JO'RAYEVA

Badiiy muharrir: Feruza NAZAROVA

Texnik muharrir: Xurshid IBROHIMOV

Rassom: Baxtiyor MUXAMEDOV

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 02.02.2012-y. Bosishga ruxsat etildi: 02.07.2012-y.

Qog'oz bichimi: 60x90 1/16. Comic sans garniturası.

Offset bosma. Sharqli b.t.: 1,79. Adadi: 1500 nusxa.

Buyurtma № 125

«AKADEMNASHR» nashriyotida nashrga tayyorlandi.

100156, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 20^A-mavze, 42-uy.

Tel.: (+998 71) 217-16-77 e-mail: akademnashr@mail.ru


«KO'HI-NUR» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Bunyodkor shox ko'chasi, 44-uy.

ISBN 978-9943-389-66-8

© «Akademnashr», 2012.

10-401411
091






Bir cholning to'rt o'g'li bo'lgan ekan. Kunlardan bir kun u:

- O'g'illarim, men qarib-qartayib qoldim, bir oyog'im yerda bo'lsa, boshqasi go'rda, - debdi. - Orangizdan bittangiz oila boshlig'i bo'lishingiz kerak.





- Kim aqlli va davlatmand bo'lsa, u menga merosxo'r bo'lishga munosibdir. Har qaysingiz aqlli va davlatmand ekanligingizni ko'rsating.

Shunda to'ng'ich o'g'il zumrad ko'zli oltin uzuk taqqan qo'lini uzatib, debdi:

- Mana boyligim, boy odamda aql ham bo'ladi. Odamlar uni izzat-hurmat qiladi, yegani oldida, yemagani ortida. Bu dunyoda boylikdan o'zga insonni baxtli va qudratli qiladigan kuch yo'q.







Ikkinchি o'g'il zarbof chophonini kiyib ko'r-satib:

- Shu paytda meni ko'rgan kishi boyligim va aqlimga qoyil qoladi, - debdi. - Bu dunyoda eng muhim narsa tashqi ko'rinish. Agar husn-u oroda benazir bo'lsang, qo'lingni har joyga uzatsang yetadi. Baxt va mol-mulk o'z-o'zidan seni qidirib topadi.





Uchinchi o'g'il kumush va javohirlar qadal-gan kamarini beliga bog'lab, debdi:

- Hech kim umrida bunday kamarni ko'rgan emas. Yorug' olamda kuch-qudrat va sharaf-shondan ulug'roq narsa yo'q. Kuchli va boy inson istagan narsasiga erishadi.





Chol boshini chayqab, katta o'g'illariga in-damabdi. So'ng kenja o'g'liga qarab:

- Nega sen jim turibsan? Sen qaysi boyling bilan maqtanasan? - debdi. - Balki, sen ham akalaring kabi biror qimmatbaho narsang bilan maqtanarsan?





Kenja o'g'il:


- Menda zumrad ko'zli uzuk ham, zarbof chophon ham, qimmatbaho kamar ham yo'q. Lekin mehnatkash qo'llarim, botir yuragim, aqli boshim bor, - deb javob beribdi. - Dunyoda hamma narsaning oxiri mavjud: boylik tugaydi, husn va kuch-qudrat o'tkinchi. Lekin kasb-u kor, mehnatkashlik inson hayotiga hamisha ko'rak bag'ishlab turaveradi.





Kenja o'g'ilning javobi cholga yoqibdi, bor davlatini unga meros qoldiradigan bo'libdi. Katta o'g'illariga esa ukalarining so'zidan chiqmaslikni tayinlabdi. Barcha farzandlarini to'g'ri yo'lga solib turadigan, ularni hayotning turfa sinovlaridan asray biladigan o'g'li borligidan ko'ngli taskin topibdi.





ISBN 978-9943-397-66-8



9 789943 397668